

Jizzax viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni
- II. Jizzax viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda 2 231 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining asosiy qismi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish – 549 ta (24,6 %);
- boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 416 ta (18,6 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 264 ta (11,8 %);
- mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish–181 ta (8,1 %);
- mebel ishlab chiqarish – 181 ta (8,1 %);
- to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish – 113 ta (5,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 88 ta (3,9 %);
- boshqa faoliyat turlari – 477 ta (21,4 %) sohalariga to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalarini ulushi

2026-yil 1-iyun holatiga ko'ra





II. Jizzax viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan **15 630,9** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1** foizga o'sdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Jizzax viloyati	15 630,9	112,1
Jizzax sh.	4 858,8	112,1
<i>hududlar:</i>		
Arnasoy	101,4	106,4
Baxmal	124,9	128,3
G'allaorol	5 375,6	113,1
Sharof Rashidov	576,8	109,8
Do'stlik	615,9	113,9
Zomin	643,1	110,4
Zarbdor	143,8	112,7
Zafarobod	527,8	113,8
Mirzacho'l	167,3	119,5
Paxtakor	852,3	112,3
Forish	659,1	118,2
Yangiobod	30,5	100,5

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda G'allaorol tumani (**27 612,7** ming so'm), Jizzax shahri (**23 853,6** ming so'm), Paxtakor (**10 158,5** ming so'm) va Zafarobod (**9 511,4** ming so'm) tumanlarida viloyat o'rtacha ko'rsatkichi (**9 955,6** ming so'm) dan yuqori natijalar qayd etildi.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **110,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, Baxmal - **125,6** %, Mirzacho'l - **117,9** %, Forish - **116,7** % va Do'stlik tumanlarida **112,4** % ni tashkil etib, yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi.

^{b)}viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini takomillashtirishni hisobga olgan holda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-may oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **15 132,6** mlrd so'mni, fizik hajm indeksi **111,7** foizni tashkil etgan bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **109,0** mlrd so'm (**106,1** %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **300,2** mlrd so'm (**136,5** %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **89,0** mlrd so'm (**116,7** %) ni tashkil etdi.

Seksiyalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-may oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda asosiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar: yumshoq bug'doy va spelta uni – 5 776,1 t., yangi so'yilgan sovutilgan go'sht – 330,0 t, O'simlik to'qilgan trikotaj polotnolar – 2 485,3 t, paxta tolasi – 17 011,4 t, porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar – 323,7 ming dona, portlandsement – 866 606,0 tonna.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may ¹⁾	2025-yil yanvar-may ¹⁾	2026-yil yanvar-may
Yumshoq bug'doy va spelta uni - tonna	8 037,1	1 815,0	5 776,1
Yangi so'yilgan sovutilgan go'sht - tonna	215,9	552,0	330,0
O'simlik yog'i (tozalangan) -tonna	5 165,1	13 894,0	716,1
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	12 532,7	14 922,4	13 728,7
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar - tonna	961,5	731,3	2 485,3
Paxta tolasi – tonna	6 797,0	3 029,5	17 011,4
Kaliy sulfat- ming tonna K ₂ O	6,8	7,1	7,2
Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar - ming dona	410,6	296,7	323,7
Portlandsement, tonna	759 397,8	882 176,0	866 606,0

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – **10,5 %**, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – **15,4 %**, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish sohalarining ulushi – **56,3 %** hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – **2,7** foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi **0,2** foizni, o'rta-yuqori texnologiyali – **57,4 %**, o'rta-quyi texnologiyali – **14,2 %**, quyi texnologiyali – **28,2** foizni tashkil etgan.



Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni yanvar-may oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil ¹⁾	2026-yil
Yengil avtomobillar, jami:	21 863	28 442
“KIA”	10 076	11 128
“Chery”	3 362	3 156
“Haval”	2 930	4 038
“BYD”	5 495	10 120

¹⁾ 2025-yilning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi **136,5** foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may ¹⁾	2025-yil yanvar-may ¹⁾	2026-yil yanvar-may
Elektr, gaz, bug' va havoni konditsiyalash, mln so'm	157 128,6	168 206,9	300 246,4
<i>shundan:</i>			
<i>Elektr energiyasi, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlarni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash</i>	108 422, 8	123 357,8	275 218,1
<i>gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish</i>	48 705, 7	44 849, 2	25 028 ,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, tozalash va tarqatish xizmatlari **34,7** foizga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may ¹⁾	2025-yil yanvar-may ¹⁾	2026-yil yanvar-may
Suv ta'minoti; kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish	31 789,5	76 662,8	89 018,9
suv yig'ish, tozalash va tarqatish mln so'm	19 771,1	48 412,8	71 298,8
chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash, olib tashlash va yo'q qilish, mln so'm	12 018,4	28 250,0	17 720,7

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-giymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Sultonova
+998 72 221-51-13 (2510)

Manzil:

